

HUQUQ OILALARINING DAVLAT BOSHQARUVI VA SUD TIZIMIGA TA'SIRI

*IIV Malaka oshirish instituti Yuridik
fanlar kafedrası o'qituvchisi, kapitan
Abdibosirov Abduqodir Abdurahmon o'g'li*

Annotatsiya. Ushbu maqolada dunyodagi asosiy huquq oilalarining davlat boshqaruvi va sud tizimiga ta'siri tahlil qilinadi. Kontinental (romano-german), anglo-sakson, islom va hind-xitoy huquq oilalarining o'ziga xos xususiyatlari, ularning davlat hokimiyatining tashkil etilishiga hamda sud tizimining shakllanishiga ta'siri ko'rib chiqiladi. Maqolada kontinental huquq tizimining yozma qonunlarga asoslanganligi va sudlarning cheklangan vakolatlari tushuntiriladi. Anglo-sakson huquq tizimida esa sud pretsedentlarining roli va sud hokimiyatining mustaqilligi muhim omil sifatida qayd etiladi. Islom huquqining davlat boshqaruvi va sud tizimidagi diniy asoslari, shuningdek, hind-xitoy huquq tizimining an'anaviy tamoyillarga tayangan holda ishlashi yoritiladi.

Kalit so'zlar: huquq oilalari, davlat boshqaruvi, sud tizimi, kontinental huquq, anglo-sakson huquqi, islom huquqi, hind-xitoy huquqi, qonunchilik, sud pretsedenti, huquqiy tizim, huquqiy islohotlar, globallashuv, sud mustaqilligi, huquqiy normalar, huquqiy integratsiya.

Аннотация. В данной статье анализируется влияние основных правовых семей мира на систему государственного управления и судебную систему. Рассматриваются особенности континентальной (романо-германской), англосаксонской, исламской и индокитайской правовых семей, а также их влияние на формирование государственной власти и судебных органов. В статье объясняется, что континентальная правовая система основана на письменных законах, а полномочия судов ограничены. В англосаксонской правовой системе ключевую роль играют судебные прецеденты и независимость судебной власти. Исследуется религиозная основа исламского права в управлении государством и судебной системе, а также традиционные принципы индокитайской правовой системы.

Ключевые слова: правовые семьи, государственное управление, судебная система, континентальное право, англосаксонское право, исламское право, индокитайское право, законодательство, судебный прецедент, правовая система, правовые реформы, глобализация, независимость суда, правовые нормы, правовая интеграция.

Annotation. This article analyzes the impact of major legal families on the system of government and the judiciary. It examines the characteristics of the

continental (Romano-Germanic), Anglo-Saxon, Islamic, and Indo-Chinese legal families, as well as their influence on the formation of state governance and judicial institutions. The article explains that the continental legal system is based on written laws, with courts having limited authority. In the Anglo-Saxon legal system, judicial precedents play a crucial role, and judicial independence is a key factor. The religious foundation of Islamic law in governance and the judiciary is explored, along with the traditional principles of the Indo-Chinese legal system.

Keywords: legal families, state governance, judicial system, continental law, Anglo-Saxon law, Islamic law, Indo-Chinese law, legislation, judicial precedent, legal system, legal reforms, globalization, judicial independence, legal norms, legal integration.

Huquq oilalari turli mamlakatlarda huquqiy tizimning shakllanishiga va davlat boshqaruvi hamda sud tizimining tashkil etilishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Huquqiy tizimlar tarixiy, madaniy va ijtimoiy omillarga bog'liq holda shakllanadi. Har bir huquq oilasi o'ziga xos qonunchilik an'analari, huquqiy manbalari va huquqni qo'llash usullari bilan ajralib turadi. Bu tizimlarning rivojlanishi davlatlarning tarixiy tajribasi, diniy qarashlari va iqtisodiy tuzilmasiga bog'liq bo'lib, har bir huquq oilasi o'ziga xos xususiyatlarga ega. Shu bois turli mamlakatlar o'z huquqiy tizimlarini milliy an'analarga mos ravishda shakllantirgan. Dunyo bo'ylab asosiy huquq oilalari kontinental (romano-german), anglo-sakson, islom va hind-xitoy huquq tizimlaridan iborat.

Har bir davlat o'z huquqiy tizimini tanlashda tarixiy an'analari, milliy madaniyat va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni hisobga oladi. Shu sababli, huquq oilalarining davlat boshqaruvi va sud tizimiga ta'siri har bir davlatda turlicha namoyon bo'ladi.

Ushbu maqolada ayrim huquq oilalarining davlat boshqaruviga va sud tizimiga ta'sirlarini tahlil qilamiz.

Kontinental (romano-german) huquq oilasining davlat boshqaruvi va sud tizimiga ta'siri. Kontinental huquq tizimi Yevropada shakllangan bo'lib, bugungi kunda dunyoning ko'plab davlatlarida qo'llaniladi. Bu tizimda yozma qonunlar asosiy huquqiy manba hisoblanadi va qonunchilikning ustuvorligi ta'minlanadi. Davlat boshqaruvi qat'iy huquqiy normalarga asoslangan bo'lib, ijroiya, qonun chiqaruvchi va sud hokimiyati o'rtasida aniq chegaralar mavjud. Shu sababli, ushbu tizim huquqiy barqarorlikni saqlash va davlat idoralarining samarali faoliyat yuritishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Davlat boshqaruviga ta'siri. Kontinental huquq tizimiga ega davlatlarda davlat boshqaruvi markazlashgan va qonunchilik asosiy hokimiyat manbai hisoblanadi. Qonun chiqaruvchi hokimiyat davlat boshqaruvining asosiy yo'nalishlarini belgilaydi va ijroiya hokimiyat uni amalga oshiradi.

Bu tizimda davlat boshqaruvi ierarxik tuzilishga ega bo'lib, yuqori organlar qonunlarni qabul qiladi, pastki organlar esa ularni bajaradi. Fransiya, Germaniya, Italiya, Ispaniya va O'zbekiston kabi mamlakatlar ushbu tizimga misol bo'la oladi.

Masalan, **«O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi»** davlat boshqaruvining huquqiy asoslarini belgilaydi. Unda qonun chiqaruvchi (Oliy Majlis), ijroiya (hukumat) va sud hokimiyati (Konstitutsiyaviy sud, Oliy sud, jinoyat va fuqarolik sudlari) vakolatlari aniq belgilab qo'yilgan¹. Shuningdek, **«Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida»gi Qonun** qabul qilinib, unda huquqiy normalarni ishlab chiqish va amalga oshirish tartibi belgilangan. Bu qonun huquqiy tizimning tartibga solinganligini va qonunlarning ustuvor ekanligini ta'minlaydi².

Sud tizimiga ta'siri. Kontinental huquq tizimida sudlar qonunchilik asosida ish yuritadi. Sudlar mustaqil hisoblanadi, ammo ular yangi huquqiy normalarni yaratish imkoniyatiga ega emas. Sudlar qaror chiqarishda asosiy e'tiborni yozma qonunlarga qaratadi. Masalan, Fransiya sudlar qonunlarni qo'llashda katta mustaqillikka ega emas, chunki ular qonunlarni o'zgartirish emas, balki talqin qilish vakolatiga ega. Germaniyada esa sud qarorlari batafsil asoslanishi kerak va sud pretsedentlari cheklangan miqyosda qo'llaniladi.

Mamlakatimiz davlat boshqaruvida ham sudlar mustaqildirlar, Konstitutsiyamizda O'zbekiston Respublikasida sud hokimiyati qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatdan, siyosiy partiyalardan, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlaridan mustaqil holda ish yuritishi mustahkamlab qo'yilgan³. Sudlar huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni yuritishda O'zbekiston Respublikasi Kodekslariga asoslanishadi, ammo, ular qonunlarga o'zgartirish kiritish vakolatiga ega emaslar.

Anglo-sakson huquq oilasining davlat boshqaruvi va sud tizimiga ta'siri. Anglo-sakson huquq tizimi Buyuk Britaniya va AQShda shakllangan bo'lib, bugungi kunda dunyoning ko'plab mamlakatlarida qo'llaniladi. Bu tizimda huquqning asosiy manbai sud pretsedentlari bo'lib, davlat boshqaruvi huquqiy moslashuvchanlik tamoyiliga asoslanadi. Hukumat organlari va mansabdor shaxslar qarorlar qabul qilishda avvalgi sud qarorlarini inobatga oladilar. Anglo-sakson tizimida sud hokimiyati mustaqil bo'lib, qonunchilik va ijroiya hokimiyati ustidan nazorat o'rnatish imkoniyatiga ega.

Davlat boshqaruviga ta'siri. Anglo-sakson huquq oilasiga mansub davlatlarda davlat boshqaruvi qonunlar bilan birgalikda sud pretsedentlariga ham asoslanadi.

¹ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 11-modda – <https://lex.uz/docs/-6445145>

² O'zbekiston Respublikasining «Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida»gi Qonuni 1-moddasi – <https://lex.uz/docs/-5378966>

³ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 130-modda – <https://lex.uz/docs/-6445145>

Bunday tizimda hokimiyat tarmoqlari o'rtasida kuchli muvozanat saqlanib, sud hokimiyati mustaqil qarorlar qabul qilish huquqiga ega.

Bu huquq tizimi mavjud bo'lgan davlatlarda hukumat va qonun chiqaruvchi organlar sud tizimi bilan birgalikda huquqni shakllantiradi. AQSh, Buyuk Britaniya, Kanada, Avstraliya va Hindiston shu tizimga mansub.

Sud tizimiga ta'siri. Anglo-sakson sud tizimida sudlar huquqni shakllantiruvchi manbalardan biri hisoblanadi. Sudlar qaror qabul qilishda faqatgina qonunlarga emas, balki oldingi sud ishlarida qabul qilingan qarorlarga (pretsedentlarga) ham tayanishi mumkin.

Masalan, AQSh Oliy sudi tomonidan qabul qilingan qarorlar barcha quyi sudlar uchun majburiy bo'ladi. Sudyalar qonunlarni sharhlashda keng vakolatlarga ega va zaruriyat tug'ilganda yangi huquqiy qoidalarni shakllantirishlari mumkin.

AQShda anglo-sakson huquq tizimi asosida sud pretsedentlari muhim o'rin tutadi. Masalan, "**Marbury v. Madison**" (1803) ishi AQShda sud hokimiyatining mustaqilligini mustahkamlab, sudlarga qonunlarning konstitutsiyaga mosligini tekshirish huquqini bergan⁴. Ushbu ish natijasida AQSh Oliy sudi **konstitutsiyaviy nazorat huquqiga** ega bo'ldi, ya'ni Kongress tomonidan qabul qilingan qonunlar Konstitutsiyaga zid bo'lsa, ularni bekor qilish vakolatiga ega bo'ldi.

Buyuk Britaniyada esa sudlar huquqiy normalarni talqin qilish va rivojlantirishda katta rol o'ynaydi. **Donoghue v. Stevenson (1932)** ishi tort huquqi sohasida muhim pretsedent hisoblanadi. Ushbu qarorda sud tomonidan "ehtiyotkorlik burchi" tamoyili shakllantirilib, ishlab chiqaruvchilarning mahsulot sifati uchun javobgarligi belgilab berilgan⁵.

Islom huquq oilasining davlat boshqaruvi va sud tizimiga ta'siri. Islom huquq tizimi Qur'on, Hadis, Ijmo va Qiyos kabi asosiy manbalarga tayangan holda shakllangan bo'lib, musulmon davlatlarida davlat boshqaruvi va huquqiy tartibni belgilashda muhim rol o'ynaydi. Bu tizimda huquq va din o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, davlat qonunchiligi ko'pincha diniy qoidalarga asoslanadi. Ba'zi musulmon mamlakatlarda Shariat qonunlari davlat boshqaruvining asosi bo'lsa, ayrimlarida u milliy qonunlar bilan uyg'unlashgan.

Davlat boshqaruviga ta'siri. Islom huquqi (Shariat) asosan Qur'on, Hadis, Ijmo va Qiyosga asoslanadi. Bu huquq tizimi musulmon davlatlarida davlat boshqaruviga katta ta'sir ko'rsatadi.

Ba'zi islom davlatlarida qonunchilik to'laligicha Shariat qoidalari asosida shakllangan, masalan, Saudiya Arabistoni va Eron. Boshqa davlatlarda esa (masalan, Misr va Indoneziya) islom huquqi milliy qonunchilik bilan uyg'unlashtirilgan.

⁴ National Archives: <https://www.archives.gov/milestone-documents/marbury-v-madison>

⁵ https://en.wikipedia.org/wiki/Donoghue_v_Stevenson

Sud tizimiga ta'siri. Islom huquqi sud tizimida odillik va axloqiy me'yorlarga alohida e'tibor qaratiladi. Sudyalar (qozilar) asosan islomiy huquq qoidalariga tayanib qaror chiqaradilar.

Ayrim islom davlatlarida sud tizimi davlat sudlari va diniy sudlardan iborat. Masalan, Saudiya Arabistonida jinoyat ishlari bo'yicha sudlar Shariat qonunlariga asoslangan.

Hind-Xitoy huquq oilasining davlat boshqaruvi va sud tizimiga ta'siri. Hind-Xitoy huquq tizimi asosan Xitoy, Yaponiya, Koreya va Vyetnam kabi davlatlarda rivojlangan bo'lib, u qadimiy an'analar, konfutsiychilik tamoyillari va davlat nazorati ostidagi huquqiy normalarga asoslanadi. Bu tizimda davlat boshqaruvi markazlashgan bo'lib, qonunlar asosan hukumat tomonidan ishlab chiqiladi va ijro etiladi. Huquq davlat manfaatlariga mos ravishda qo'llanilib, jamiyat barqarorligini saqlashga qaratilgan. Shu sababli, davlat hokimiyatining vakolatlari keng bo'lib, sud tizimi ham ma'lum darajada hukumat nazoratida bo'ladi.

Davlat boshqaruviga ta'siri. Hind-Xitoy huquq oilasiga mansub davlatlar (masalan, Xitoy, Yaponiya, Koreya va Vyetnam) o'z huquqiy tizimlarini an'anaviy qoidalar va davlat boshqaruvi modeli asosida shakllantirgan.

Bu davlatlarda davlat boshqaruvi ierarxik tizimga ega bo'lib, davlat organlari markazlashgan tarzda faoliyat yuritadi. Qonunchilik davlat nazoratida bo'lib, hokimiyat tizimi tartibga solingan.

Sud tizimiga ta'siri. Hind-Xitoy huquq tizimida sud jarayonlarida murosa va nizolarni muzokaralar orqali hal qilishga ustuvor ahamiyat qaratiladi. Sudlar huquqni tartibga soluvchi va adolatni ta'minlovchi organ sifatida ishlaydi.

Xitoyda sudlar partiya nazorati ostida bo'lib, sud qarorlari davlat siyosatidan kelib chiqib qabul qilinadi. Yaponiya va Koreyada esa sudlar nisbatan mustaqil bo'lib, asosan kontinental huquq tizimi elementlaridan foydalanadi.

Huquq oilalari davlat boshqaruvi va sud tizimiga katta ta'sir ko'rsatadi. Kontinental huquq tizimida qonun ustuvor hisoblanib, sudlar qonunlarni ijro etadi. Anglo-sakson huquq tizimida esa sudlar mustaqil bo'lib, huquq normalarini shakllantirishda faol ishtirok etadi.

Islom huquqi asosan diniy me'yorlarga tayanib, axloqiy normalarni himoya qiladi. Hind-Xitoy huquq tizimi esa an'anaviy qoidalarga asoslanib, murosa va kelishuvga alohida e'tibor beradi.

Shuningdek, globallashuv jarayonida turli huquq oilalari o'rtasidagi farqlar kamayib bormoqda. Ko'plab davlatlar o'z huquq tizimlarini boshqa huquq oilalari tajribasidan foydalangan holda isloh qilib bormoqda.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi

2. O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 20-aprel kunidagi «Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida»gi O'RQ-682-sonli Qonuni
3. M. Stolleis, History of Public Law in Germany, Oxford University Press, 2004.
4. P. Stein, Roman Law in European History, Cambridge University Press, 1999.
5. H. Coing, European Private Law: Its Scope and Development, North-Holland Publishing, 1987.
6. «Germaniya fuqarolik qonuni» (Bürgerliches Gesetzbuch) – <https://www.gesetze-im-internet.de/bgb/>
7. National Archives: <https://www.archives.gov/milestone-documents/marbury-v-madison>
8. https://en.wikipedia.org/wiki/Donoghue_v_Stevenson